

**KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O‘QUVCHILARNIO‘QISHGA  
BO‘LGAN QIZIQISHINI OSHIRISH**

**Ergasheva Nigoraxon Bozarovna**

**Andijon viloyati Andijon tumani 24- umum ta’lim maktabining  
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi**

**Annotatsiya:** Maqolada kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarni o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshirish, o‘quvchilarni kichikligidan o‘qishga bo‘lgan qiziqishini samarali usullar orqali oshirib borish haqida .

**Kalit so‘zlar:** kichik maktab, yoshidagi o‘quvchilar, pedagog, qiziqish, samara, usullar, oshirish, o‘zlashtirish innovatsiya, interfaol ,pedagogik o‘yinlar.

**KIRISH**

Bizga ma’lumki, O‘zbekistonda ta’lim tarbiya jarayoni birga olib boriladi. Shu bilan birga zamonaviy texnologiyalardan foydalansak maqsadga muvofiq bo‘lard. Chunki o‘quvchilarimiz bugungi kun bilan yashashi ta’lim olishi kerak. Hozirgi davrda kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarni o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshirish uchun turli ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Chunki bu masala ayni paytgacha dolzarb bo‘lib kelgan. Kichik maktab yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati o‘qish hisoblanadi. O‘quv faoliyati boladan nutq, tafakkur, qobiliyat rivojlanishi uchun yangi sharoit yaratadi. Maktabga kelgash bola o‘z atrofida bilan psixologik jihatdan yangi munosabat tizimiga o‘tadi. U o‘zining hayotini tubdan o‘zgartirishni, unga yangi majburiyatlar, o‘quv faoliyati talablariga bo‘y so‘nish, har kun maktabga borishni his eta boshlaydi. Oila a`zolarining bola o‘quv faoliyati yutiqlari bilan qiziqayotganligi, shuningdek, uni nazorat qilayotganligi, unga qilinayotgan yangicha shakldagi munosabat uning ijtimoiy mavqei o‘zgarganligini to‘la his etishga o‘ziga nisbatan munosabatning o‘zgarishiga asos bo‘ladi. Ta’lim jarayonidagi barcha imkoniyatlar orqali ularning bilimlar egallash ko‘lami kengayadi, qiziqishlari ortadi, ijodiy izlanish qobilayati rivojlanadi, tafakkurning faolligi, mustaqilligi ortadi, aqliy imkoniyatni ishga solish vujudga keladi. Ular har bir narsaga berilib, sinchkovlik bilan ular o‘rtasidagi farqni ajratish, umumlashtirish, xulosa chiqarish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bola maktabga qadam qo‘yishi bilanoq unga bo‘lgan munosabat va talablar orqali o‘ziga xos bo‘lgan aqliy rivojlanish xususiyatlari uchun imkoniyatlar va shart –

sharoitlar yaratish oila, maktab ta'lim tizimiga ulkan ma'suliyat hissini yuklaydi. Shuning uchun o'qituvchilar va ota-onalar hamkorlikda ish olib borishi kerak. Buning uchun o'qituvchi juda kuchli pedagogik mahoratga ega bo'lishi lozim. Buning uchun pedagog avvalo o'quvchi bilan qanday muloqat qilishni bilishi zarur. Bu o'rinda ikkita savol tug'iladi: "nimani o'rgatish kerak?" "qanday o'rgatish kerak?"

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Bugungi kun o'quvchilarini qiziqishini va e'tiborini ta'limga qaratish uchun ta'lim tizimiga innovatsiya kiritishimiz lozim. Boisi sifatli ta'lim, sifatli natija beradi. O'qituvchi pedagog har bir darsiga innovatsiya kiritishi kreativ yondashgan holda ish olib borishi kerak. Shunda dars jarayoni sifatli, qiziqarli, oson hamda o'quvchilar o'zlashtirib olishlari uchun qulay bo'ladi. Bunday darslarnatijasida o'quvchilarini bilim salohiyati, kreativlik qobiliyati juda yaxshi rivojlanadi. Ta'limga yondashuv - bu yangi texnologiyalar uchun asos bo'lgan asosiy tamoyil, talablar va maqsadlar to'plami. Zamonaviy ta'limning talabi o'quvchilarga imkon qadar ko'proq bilim berish emas, balki ularni o'z-o'zidan o'rganishga, nafaqat bilishga, balki olingan ma'lumotlar bilan ishlay olishga o'rgatishdir. Har bir darsda interfaol o'yinlarni va innovatsiyani bo'lishi dars jarayonini qiziqarli va tushunarli bo'lishiga hizmat qiladi.

**Interfaol metodlar** - bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog talabalarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

**Innovatsiya** (inglizcha innovation) - yangilik kiritish, yangilikdir. A.I. Prigojin innovatsiya deganda - muayyan ijtimoiy birlikka - tashkilot, aholi, jamiyat, guruhga yangi, nisbatan turg'un unsurlarni kiritib boruvchi maqsadga muvofiq o'zgarishlarni tushunadi. Bu innovatorlik faoliyatidir. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol metodlardan to'liq foydalaniladi.

### **Pedagogik o'yinlar**

O'yin ijodiylik bilan ajralib turadi. U mumkin qadar boy, faol xarakteriga — «ijod maydoni»ga ega bo'ladi.

O'yin uchun hissiy ko'tarinkilik xosdir. U o'zaro kurash, musobaqalashish, raqobat shaklidanamoyon bo'ladi.

# “CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 5. May 2024

O‘yinning o‘yin mazmunini aks ettiruvchi, uni rivojlantirishning mantiqiy va vaqtincha izchilligini ko‘zda tutgan bevosita tegishli va unga nisbiy aloqador qoidalari bo‘lishini ko‘rsatadilar.

O‘yinning tarbiyaviy maqsadi mustaqillik, irodani tarbiyalash, muayyan yondashuvlar, nuqtai nazarni, ma'naviy, estetik va dunyoqarashni shakllantirishdagi hamkorlikni, kollektivizmni, jamoaga kirishib keta olishni, kommunikativlikni tarbiyalashga qaratilgan bo‘ladi. Faoliyatni rivojlantiruvchi o‘yinlar diqqat, xotira, nutq, tafakkur, qiyoslash malakasi, o‘xshashini topish, faraz, xayol, ijodiy qobiliyat, empatiya, refleksiya, optimal yechimni topa olish, o‘quv faoliyatini motivatsiyalashni rivojlantirishga qaratilgan bo‘ladi.

Innovatsiyalarni qanday qabul qilish kerak? Innovatsion xulq-atvor moslashishni anglatmaydi, u o‘z shaxsiylikni shakllantirishni, o‘zini o‘zi rivojlantirishni nazarda tutadi. O‘qituvchi innovatsion ta'lim barkamol shaxsni tarbiyalash usuli ekanligini tushunishi kerak. "Tayyor shablonlar" unga mos kelmaydi, doimiy ravishda o‘z intellektual darajangizni oshirish muhimdir. "Komplekslar", psixologik to‘siqlardan xalos bo‘lgan o‘qituvchi innovatsion o‘zgarishlarning to‘la huquqli ishtirokchisi bo‘lishga tayyor.

## **MUHOKAMA**

Har bir metod yoki innovatsion dars shablone to‘liq xolda dars jarayoniga yoki har bir sinfga mos kelmasligi mumkin, bunda pedagog yangilikni biroz o‘z sharoitiga moslab, dars jarayonida qo‘llashi yana xam tushunarli va oson bo‘lishiga olib keladi. Dars jarayonida o‘quvchilarni fikrinito‘liq eshitish va ularni savollariga javob berish, rag‘batlantirish juda muhim sanaladi. Rag‘batlantirish jarayoni davomiyligi o‘quvchini faol harakatini ta‘minlaydi. Maqsadi sari intilishni ta‘minlaydi. Buning uchun sinfda sog‘lom raqobat muhitini tashkillash va sinfda jamoa bo‘lib ishlashni, ahillikni, birdamlik ruhini tarbiyalash muhim sanaladi. Sinfdagi har bir o‘quvchini qiziqishi, intilishi bilan birgalikda ularni qiynayotgan va tushinilishi qiyin mavzular qaysi ekanligini bilish muhim. Chunki o‘quvchilarni muammoli vaziyatlariga sinf rahbar tomonidan yechim berilishi muhim sanaladi. Kichik maktab yoshdagi o‘quvchilarning axloqiy sifatlarni rivojlantirishdagi koz‘langan maqsadga erishish uchun ularning yoshi va psixologik xususiyatlarini hisobga olish shart. Ma‘lumki, oquvchilarning psixologik xususiyatlari har xil bo‘lib, bir o‘quvchiga muvaffaqiyat bilan qo‘llangan tarbiyaviy ta‘sir vositasi boshqa birga qo‘llanilganda kutilgan natijani bermasligi mumkin. Tarbiyaviy tadbirlar o‘quvchilarga yakkamayakka yondoshib

# “CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 5. May 2024

amalga oshirilsa yaxshiroq samaraga erishilishi shubhasizdir. Ma'lumki I-II sinf o'quvchilarida xali qiziqishlar yaqqol namoyon bo'lmaydi, o'quvchilar o'qish jarayonida hamma narsalarga qiziqish bilan munosabatda bo'ladilar. O'zlari o'zlashtirgan faoliyat ularni qanoatlantiradi. Keyinchalik esa, sabablarni, qonuniyatlarni, hodisalar o'rtasidagi aloqa va bog'liqliklarni bilib olish uchun bo'lgan qiziqishlar rivojlanadi. Agar I-II sinf o'quvchilarini “Bu nima?” – degan savol ko'proq qiziqтира, bir muncha kattaroq yoshdagi bolalar uchun “Nima sababdan?”, “Qanday qilib?” degan savollar muhim bo'lib qoladi. O'qish malakasining rivojlanishi bilan kitob o'qishga qiziqish yuzaga keladi. Dastavval kitob o'qishga, undan so'ng esa mazmuni o'tkir va qiziqarli bo'lgan muayyan adabiyotlarni, ertaklarni o'qishga, keyinchalik qiyin bo'lmagan ilmiy sarguzashtlar haqida kitoblarni o'qishga qiziqish paydo bo'ladi. I-II sinf o'quvchilarini o'zlashtirayotgan materialni mazmuni, o'qish ishlarining ayrim usullari o'ziga jalb eta boshlaydi. III va IV sinf o'quvchilarining mustaqilligi o'sib boradi. Bu yoshdagi o'quvchilar aqliy faoliyat usullari, o'z xotirasi, nutqi, diqqati hamda irodasini o'stirish bilan bog'liq bo'lgan barcha ishlarga qiziq boshlaydi. IV sinfda o'quvchilar o'zlarining har xil fanga bo'lgan qiziqishlarini aniq belgilaydilar. Fanlardan ba'zilariga ko'proq e'tibor berib uni yoqtirsalar, ba'zilarini yoqtirmaydilar. O'quvchilar qaysi ishdan ko'proq qanoat hosil qilsalar, shu ishlar ularda qiziqish paydo qiladi. Bola ma'lum ishni bajarayotganda o'ziga bo'lgan ishonchni yo'qotmasligi, o'ziga topshirilgan ishni bajara olishni bilish, buning uchun esa faqat g'ayrat – shijoat ko'rsatish kerakligini anglashi kerak.

## **NATIJA**

O'quvchilarda qiziqishlar, aqliy taraqqiyot rivojlanishi oddiydan murakkabga, ma'lumdan noma'lumga, yaqindan uzoqqa, tasvirlashdan tushuntirishga, faktlardan umumlashtirishga qarab boradi. O'quvchilarni ta'limni o'zlashtirishga quyidagilarga e'tibor qaratish lozim: O'quvchilar qanchalik yosh bo'lsalar, ta'lim shunchalik ko'rgazmali bo'lishi hamda faol harakt qilish katta rol o'ynaydi. Barcha o'quvchilar bir xil bilimga ega emas, ular turli tayyorgarlik darajasiga ega va bundan boshqacha bo'lishi ham mumkin emas. Shu sababli berilgan materialni bilmaslik past o'zlashtirishning asl sababini ko'rsatmasligi mumkin. Bilamizki, ko'pchilik pedagoglar o'quvchilarning aqliy rivojlanishini baholashda qiynaladilar va buning oqibatida ularning ish faoliyatida ta'lim jarayonida hisobga olinishi lozim bo'lgan muhim omil go'yoki chetda qolib ketadi. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, o'quvchilarning aqliy rivojlanish darajasi ulardagi nazariy yoki amaliy bilim olishga bo'lgan qobiliyat yoki

# “CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 5. May 2024

bilimning mavjudligi bilangina aniqlanmaydi. O‘quvchining aqliy rivojlanish darajasi tafakkur jarayonlarining rivojlanganligi, o‘quv materialining muhim va asosiy larni ajrata olishi, olgan bilim yoki hosil qilingan, o‘zlashtirilgan ko‘nikmani boshqa faoliyatga ko‘chira olishi, turli nazariy bilimlarni amalda qo‘llay olishi, mustaqil fikrlashi, xulosa chiqara olishi kabi bir qancha belgilar bilan aniqlanadi.

Xulosa qilib aytganda uchinchi sinf o‘quvchilarning odob tog‘risidagi fikr, va mulohazalari mazmuni va shakli va tuzilishi bilan fikr mulohazalaridan farqlanadi. Buning sababi ularning turmush tajribasi ko‘lami kengroqligi yosh davri xususiyatiga bog‘liq farq bilan narsaga turlicha qarsh har xil yondashish muammo mohiyatini ochib berish uslubi bo‘yicha ham farqlar mavjuddir. I-III sinf o‘quvchilarida axloqiy tushunchalarni tarkib topishi uchun avvalo har bir tushunchaning muhim alomatini ajratishning umumlashtiruvchi ikkinchi darajali belgilarni topishi o‘zgartirish zarurligini ko‘rsatadi. Har bir pedagog o‘z ustida doimiy izlansa, uning pedagogik mahorati va bilimlari ortib boradi. O‘quvchilari va ota-onalari, hamkasblari orasida hurmati doimo ortib boradi. Beshikdan to qabrgacha ilm olish, insonni mavqeyini ortishiga hizmat qiladi. Bugungi kun pedagogi o‘z ustida doimiy izlanishi uning jamiyatdagi mavqeyini belgilaydi.

## REFERENCES

1. Boymurodov N Amaliy psixologiya T.: 2008 y- 316 b.
2. Dilnoza Xalkuziyeva ., Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga axloqiy-irodaviy tayyorligining psixologik jihatlari. SCIENTIFIC PROGRESS. 2021/6, pp 704-706
3. Ivanov P.I. M.Zufarova “Umumiy psixologiya” T.: 2008 y
4. Jo‘raev S. , F.Qodirov “Kichkintoylar nutqini o‘stirish” T.: 2005 y.
5. Nishonova Z. Alimova G. “Bolalar psixologiyasi va uni o‘qitish metodikasi” T.: 2006 y
6. Nishonova Z.T. Do‘stmuxammedova Sh.A. To‘lyaganova Sh.T. Pedagogik psixologiya. Toshkent 2011
7. Voxidov M. “Bolalar psixologiyasi” T.: O‘qituvchi. 1982 y. 8. Султонова Н.А. ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПОДГОТОВКИ ДЕТЕЙ В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ КСОЦИАЛЬНОЙ ЖИЗНИ В СЕМЬЕ // SCIENTIFIC PROGRESS 2021// 1 (6), 631-635 9. Юлчибоева, Д. Э. (2021). ОПРЕДЕЛЕНИЕ Т